

Humansning “Bir yillik 100 ta cheksiz xizmat” tanlovini o’tkazish qoidalari

(keyingi o’rinlarda muvofiq ravishda “Qoidalar” va “Tanlov”)

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Tanlov tashkilotchisi: “Humans” mas’uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko’chasi, 2 B-uy, STIR 306624856 (Tashkilotchi).
- 1.2. Mazkur Qoidalar matnida bosh harflarda qo’llangan so’zlar atamalar sanaladi. Atamalar ma’nosi mazkur Qoidalarda belgilanmagan bo’lsa, Humans aloqa xizmatlarini ko’rsatish Shartlari hamda www.humans.uz Saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida keltirib o’tilgan.
- 1.3. Tanlov yangi mijozlarni jalb qilish, Tashkilotchi xizmatlarini sotuvini oshirishga qaratilgan.
- 1.4. Tanlovda Tashkilotchining Instagramdagi @humans.uz va @humans.uz.marketplace akkauntlariga obuna bo’lgan va Tanlov tugash vaqtiga qadar obunachi bo’lib qolgan hamda mazkur Qoidalarning 2.1.-bandida ko’rsatilgan harakatlarni bajargan (keyinchalik “Ishtirokchi” deb yuritiladi) jismoniy shaxslar qatnashishlari mumkin.
- 1.5. Ishtirokchining Tanlovda qatnashuvi fakti Ishtirokchining joriy Qoidalar bilan tanishib chiqqani va mazkur Qoidalarga muvofiq ravishda Tanlovda qatnashish uchun rozi ekanligini anglatadi.
- 1.6. Tanlovning o’tkazilish davri – 24.11.2021-y. dan 05.12.2021-y. gacha.
- 1.7. Tanlov o’tkaziladigan hudud – O’zbekiston Respublikasi.
- 1.8. Tashkilotchi mazkur Qoidalarga muvofiq, joriy Qoidalarning 5-bo’limida qayd etilgan G’olib sifatida tan olingen Ishtirokchilarga (keyinchalik – “Sovrinlar” deb yuritiladi) sovrinlar topshiradi.

2. Tanlovda ishtirok etish tartibi va shartlari

- 2.1. Tanlov o’tkazish davrida Ishtirokchi quyidagi harakatlar yig’indisini ijro etishi lozim;

- 2.1.1. Ishtirokchi Instagramdagi @humans.uz akkauntida Tanlov to'g'risidagi nashrga layk belgisini qo'yishi kerak;
 - 2.1.2. @humans.uz sahifasidagi tanlov nashrini @humans.uz sahifasini belgilagan holda repost qilishi kerak;
 - 2.1.3. Izohlarda ikki do'stini belgilashi kerak.
- 2.2. Qoidalarning 2.1.-bandida ko'rsatilgan amallarni bajarish shartlari:

- tijorat akkauntlari va atayin tanlov uchun ochilgan akkauntlar tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi;
- izohlarda mediaga taalluqli tijorat akkauntlari va profillarni belgilash mumkin emas;
- Ishtirokchi profili Tanlov o'tkazilayotgan va yakunlari ko'rilibayotgan paytda ochiq bo'lishi kerak.

2.3. Joriy Qoidalarning 2.1.1. – 2.1.3.-bandlarida belgilangan harakatlar yig'indisi Ishtirokchi joriy Qoidalarning 5-bo'limida belgilangan Sovrinlarni olish uchun nomzodga aylanib, Ishtirokchining Tanlovda qatnashish uchun arizasi sifatida qabul qilinadi.

2.4. Tashkilotchi agar Ishtirokchining vijdonan bajarilmagan harakatlari, xususan ijtimoiy tarmoqlarda faollikni manipulatsiya qilishi sababli va boshqa shu kabi holatlarda uni Tanlovdan chetlatishga haqli.

3. Tanlovni o'tkazish muddatlari

- 2.2. Tanlov 24.11.2021-y. dan 05.12.2021-y. gacha. o'tkaziladi.
- 3.1. Tanlov G'oliblari 12.12.2021-y. gacha aniqlanadi.
- 3.2. G'oliblarga Sovrin 19.12.2021-y. dan kechiktirmay taqdim etiladi.

4. Tanlov g'oliblarini aniqlash

- 4.1. G'oliblar joriy Qoidalarning 3.2-bandida belgilangan kunda aniqlanadi.
- 4.2. G'oliblar joriy Qoidalarning tasodifiy tanlov natijalariga ko'ra va 2.1.1. – 2.1.3.-bandlarida belgilangan mezonlarga muvofiq tanlanadi. Tashkilotchi Tanlovnning barcha ishtirokchilarini Excel jadvali ro'yxatiga kiritadi va qator raqamini tasodifan tanlash orqali 100 (yuz) nafar G'oliblarni aniqlaydi.
- 4.3. Joriy Qoidalarning 3.2.-bandida ko'rsatilgan muddatda Tashkilotchi Instagramdagi @humans.uz akkauntidagi post orqali Tanlovda muvaffaqiyat qozonganliklari haqida G'oliblarni xabardor qiladi.

4.4. Yutuqlar Tanlovda muvaffaqiyatni qo'lga kiritganligi haqida xabardor qilinishi bilan beriladi. Agar G'olib Tashkilotchi bilan aloqa xizmatlari ko'rsatish to'g'risida Sharhnomalar tuzmagan bo'lsa, unga 2021-yil 19.12.ga qadar Sharhnomalar tuzish, shuningdek Yutuqni olish uchun HUMANS.uz ilovasida ro'yxatdan o'tkazish uchun muddat beriladi.

5. Tanlovning Sovrin fondi

- 5.1. Sovrin sifatida G'olibga 360 kunga cheksiz internet va cheksiz qo'ng'iroqlar paketini ularshga yetadigan 663 000 UZS miqdorida Bonus to'lab beriladi. Tashkilotchining paketlari va tariflarining batafsil bayoni humans.uz saytida mavjud.
- 5.2. G'olib Yutuqni o'rniiga Yutuqning puliga teng ekvivalentini to'lab berishlarini talab qilishga haqli emas. Yutuq qiymatiga teng pul muqobilini to'lab berish, sovrinni almashtirish Tashkilotchi tarafidan mutlaqo amalga oshirilmaydi.
- 5.3. Yutuq olish huquqi G'olib tarafidan boshqa shaxsga berilishi mumkin emas.
- 5.4. Yutuq Qoidalarning 3.3.-bandida belgilangan muddatda Humans sodiqlik Dasturi Qoidalariга muvofiq ochilgan Ishtirokchining keshbek-hisobiga o'tkaziladi.

6. Yakuniy qoidalar

- 6.1. Tanlovni o'tkazish natijalari yakuniy hisoblanib, qayta ko'rib chiqilishga yo'q qo'yilmaydi.
- 6.2. Tanlovga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish va qatnashish jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalarni buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.
- 6.3. Joriy Qoidalalar Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchilarni humans.uz saytida xabardor qilish orqali o'zgartirilishi yoki Tanlov bekor qilinishi mumkin. Qoidalalar Tashkilotchi Saytida tegishli xabar e'lon qilingan paytdan boshlab bekor qilingan yoki o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

